



# Qurilish ishlari

## RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi – 498,7 mlrd. soʻm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – 15,4 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 54,6 foiz
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 30,0 foiz

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Qoraqalpogʻiston Respublikasi boʻyicha 498,7 mlrd. soʻmlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 107,1 foizni tashkil etdi va 7,1 foiz punktga oshdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 76,6 mlrd. soʻmni yoki 110,8 foizni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 foiz punktga oshdi.




## Qurilish ishlari, mlrd. soʻm




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 483,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 97,0 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 foiz punktga oshdi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Jami qurilish pudrat ishlari tarkibidagi “Bino va inshootlar qurilishi” faoliyat turi boʻyicha 327,2 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi, va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 10,6 foiz punktga koʻpaydi. Shuningdek, “Fuqarolik ob'ektlari qurilishi” faoliyat turi boʻyicha 52,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 5,4 foizga punktiga oshdi, “Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari” faoliyat turi boʻyicha 118,7 mlrd. soʻmga bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 0,9 foiz punktga kamaydi.

## Qurilish ishlari tarkibi

Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish texnik qayta qurollantirish 357,5 mlrd. so'm


Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari 141,2 mlrd. so'm



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jixotdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 357,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 141,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish ishlari 13,0 foiz punktga ko'paydi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 5,4 foiz punktga kamaydi.

## 2018 yil yanvar-aprel oylari uchun qurilish ishlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish

statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova

(0361) 222-75-91